

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOQIYEV XUSHRUD XUSHVAQOVICH**

**OLIY TA'LIM MUASSASASI PROFESSOR-O'QITUVCHILARNING  
ILMIY-INNOVATSION FAOLIYATINI LOYIHAVIY YONDASHUV  
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Boqiyev Xushrud Xushvaqovich**

Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida rivojlantirish..... 3

**Бакиев Хушруд Хушвактович**

Развитие научно-инновационной деятельности профессорско-преподавательского состава высшего учебного заведения на основе проектного подхода ..... 23

**Bakiev Khushrud Khushvaktovich**

Development of scientific and innovative activities of professors and teachers in higher education institutions based on a project approach..... 45

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 50

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOQIYEV XUSHRUD XUSHVAQOVICH**

**OLIY TA'LIM MUASSASASI PROFESSOR-O'QITUVCHILARNING  
ILMIY-INNOVATSION FAOLIYATINI LOYIHAVIY YONDASHUV  
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

**13.00.01 –Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.Phd/Ped4718 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Shahrisabz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ndpi.uz](http://www.ndpi.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Turayev Sirojiddin Juraqobilovich**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dotsent

**Rasmiy opponentalar:**

**Pazilova Meruert Ermeqbaevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Pirniyazov Iskender Qudiyarovish**  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "23" 10<sup>00</sup> kuni soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75; e-mail: [nkspi\\_info@edu.uz](mailto:nkspi_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (136 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ da tarqatildi.  
(2025 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).



**B.P. Otemuratov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, f.-m.f.d., professor

**Z.K. Kurbaniyazova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, p.f.d., professor

**A.K. Berdimuratova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirishda zamonaviy raqamli texnologiyalari va mustaqil kasbiy rivojlanishning yangicha shakllarini o'zlashtirish istiqbolli yo'nalishlar sifatida ta'kidlanadi. Jumladan, 2030-yilgacha qabul qilingan umumjahon ta'lim Konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" g'oyasi pedagog kadrlar kasbiy faoliyatida kompetentlik darajalarini uzluksiz oshirish va ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirish alohida e'tibor qaratilgan.

Xalqaro pedagogik tajribalarga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarni ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirish, uzluksiz malaka darajasini oshirish jarayonlari "Interactive professionalism" kabi yangicha shakllarga tayangan holda interfaol imkoniyatlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash, uslubiy-didaktik ta'minotini takomillashtirish, modellashtirish, pedagogik texnologiyasini takomillashtirish, baholash mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati tug'uladi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarni ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirish bo'yicha yetarlicha pedagogik shart-sharoitlar yaratilgan. 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning taraqqiyot strategiyasida "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish"<sup>1</sup> ustuvor vazifalarga muvofiq ta'lim portallarida onlayn va oflayn texnologiyalariga asoslangan kurslarini joriy etish va kafedra bilan tarmoqlar o'zaro hamkorlikda professor-o'qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirish imkoniyatlarini yaratish, oliy ta'lim muassasalarining kafedra mudiri boshqaruv faoliyatida ilmiy salohiyatni oshirish, ustoz-shogird an'alarini takomillashtirish, ilmiy ishlar va innovatsiyalarni tijoratlashtirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-martdagi "O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T., 2022. –B.39.

strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 128-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimiz olimlaridan R.X.Djurayev, P.T.Magzumov, U.N.Nishonaliyev, A.R.Xodjabayev, X.F.Rashidov, U.M.Inoyatov, N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, Z.K.Ismailova, D.D.Sharipova, Q.T.Olimov, O'Q.Tolipov, M.B.Urozova, D.O.Ximmataliyev, J.A.Hamidov, O.A.Qo'ysinov, R.K.Choriyev va boshqa pedagog olimlarimiz professor-o'qituvchilarni ilmiy-innovatsion faoliyatini takomillashtirish, shuningdek oliy ta'lim tizimida o'quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha U.Sh.Begimqulov, F.M.Zakirova, N.A.Qayumova, J.A.Hamidov, O.X.Turakulov, S.J.Turayev va boshqa pedagog olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan N.V.Gladik, I.A.Zayseva, N.I.Naumkin, V.V.Travin, N.N.Tulkibayeva, J.A.Ushakova, T.I.Shamova, Ye.A.Shakuto, Ye.V.Yakovlev va boshqalar oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarni ilmiy-innovatsion faoliyatini takomillashtirish muammolari bo'yicha o'z ilmiy izlanishlarini olib borishgan.

Xorijiy mamlakatlarda Ye.I.Mashbits, B.K.Atrostik, S.V.Nguyen, E.Brynjolfsson, A.Mcafee, D.H.Autor, D.Dorn va boshqalar tomonidan oliy ta'limda pedagog kadrlarning ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirishni samarali tashkil etishda kafedra, ilmiy tadqiqot va malaka oshirish institutlari bilan hamkorlikning yetarli darajada yulga quyilmaganligi, raqamli texnologiyalar yordamida pedagog kadrlarning ilmiy-innovatsion faoliyatini takomillashtirishning uslubiy ta'minoti takomillashtirilmaganligi, integrallashgan raqamli ta'lim muhitini yaratish jarayonida kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishning yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi hamda pedagogik jihatdan to'liq tadqiq qilinmaganligi kabi yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

**Tadqiqot ishimizning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Qarshi davlat

universitetining “AIF 2/17 O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini tashkil etishda yangi texnologiyalar” (2019–2021-yy) mavzusidagi grant loyihasi dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida rivojlantirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarida ilmiy-innovatsion faoliyatni loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini ta’minlash, uslubiy-didaktik ta’minotini mazmunan rivojlantirish;

oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarida ilmiy-innovatsion faoliyatni loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirishning texnologik modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

OTMlari bilan o‘zaro hamkorlikda professor-o‘qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirishning pedagogik texnologiyasini takomillashtirish;

oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatining rivojlanganlik darajalarini baholash mexanizmini takomillashtirish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirish jarayoni olingan bo‘lib, Buxoro va Termiz davlat universitetlari hamda Shahrhisabz davlat pedagogika institutidan jami 328 nafar respondent ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmeti** oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirishning mazmuni, shakli, pedagogik texnologiyalari va vositalari.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot maqsadiga erishish va qo‘yilgan vazifalarning yechimini topish uchun mavzuga oid falsafiy, pedagogik, psixologik manbalar, DTS, malaka talablar, o‘quv rejalar, o‘quv dasturlarini qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish, modellashtirish (loyihalash), pedagogik-ijtimoiy (test, anketa-so‘rov, suhbat, kuzatish) va tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish va natijalarga matematik va statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

professor-o‘qituvchilarning kommunikativ tashabbusini mafkuraviy, motivatsion, xulq-atvor, hissiy-subyektiv komponentlarini rivojlantirish orqali ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirishning mazmunli-muvofiqlashtiruvchi va subyektiv-mazmunli pedagogik shart-sharoitlari rivojlantirilgan;

oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida rivojlantirish ishlari fizik, matematik va mantiqiy-semiotik modellariga xos texnologik modeli, maqsaddan natijaga yo‘naltirilgan bashoratlash imkonini beruvchi hamda algoritmik ketma-ketlikni ta’minlovchi komponentlar uzviyligida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim professor-o'qituvchilarini ta'lim olishning konseptual, texnologik, baholovchi-nazorat kabi funksional xususiyatlarini o'zlashtirish natijasida maxsus kurslarni integratsion raqamli-mobillashtirish va dasturiy ta'minot ishlab chiqish orqali ilmiy ishlar va innovatsiyalarni tijoratlashga o'rgatishning pedagogik texnologiyasi takomillashtirilgan;

professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga xos sifatlarini hamda intellektual-madaniyatli, ijodiy, tashabbuskor, oliy ta'lim muassasasi strategik maqsadlariga erishishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-innovatsion tayyorgarligining reproduktiv, produktiv, ijodiy darajalarini baholashning motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv mezonlari takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida kafedra to'g'risidagi Nizom talablariga muhit, raqamli ta'lim muhiti, tarmoqli muhit, masofaviy raqamli ta'lim muhiti, raqamlashtirilgan masofaviy malaka oshirish kabi tushunchalar mazmuni mualliflik talqini nuqtai nazaridan kiritilgan va amaliyotga joriy qilingan;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarida ilmiy-innovatsion tayyorgarligini takomillashtirishning innovatsion tashkiliy-didaktik shakllarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari va sifat ko'rsatgichlari, raqamli texnologiyalarga asoslangan uslubiy-didaktik ta'minoti ("Oila pegagogikasi", "Chiziqli algebra") ishlab chiqilgan, "Matematikani o'qitish metodikasi" kafedrasining <https://www.shdpimatematika.wordpress.com/> nomli sayti ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilingan;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarida ilmiy-innovatsion tayyorgarligini takomillashtirishning texnologik modeli asosida pedagogning mustaqil ta'lim olishga psixologik-pedagogik va axborot-texnologik tayyorligini shakllantirish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi takomillashtirilgan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchiligi Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plami, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, intervyular, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan modellar, mexanizmlar va tuzilmalar oliy ta'lim muassasalarida kafedra professor-o'qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirishga raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish, ulardan pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini uzluksiz takomillashtirishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirish jarayonini raqamlashtirish, pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash, ilmiy-innovatsion tayyorgarlik sifati va samaradorligini oshirish, ustoz-

shogird an'alarini takomillashtirish, kafedra mudiri boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, zamonaviy o'quv-metodik ta'minotni yaratish, ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.** Oliy ta'lim muassasalarida kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari ilmiy-metodik tayyorgarligini boshqarishning texnologik modeli maqsadli, mazmunli, jarayoniy va tashxislovchi-natijaviy komponentlar uzviylikida tizimli, shaxsga yo'naltirilgan va androgogik yondashuvlar hamda maqsadlilik, ochiqlik, faoliyatlilik, insonparvarlik, optimallik tamoyillari asosida takomillashtirishga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2021-yil 26-fevraldagi 106-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'limda kafedralar faoliyati to'g'risidagi Nizom" da ko'rsatib o'tilgan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 10-sentyabrdagi 4/17-4/4-14534-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur takliflar OTM kafedralari professor-o'qituvchilarining ilmiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qilgan;

oliy ta'lim muassasalarida kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy-metodik tayyorgarligini boshqarishning tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik, uslubiy-didaktik shart-sharoitlar raqamli ta'lim texnologiyalariga ustuvorlik berish, uslubiy-didaktik ta'minotni malaka oshirish tizimiga mazmunan muvofiqlashtirish asosida ta'minlashga oid tavsiyalardan Qarshi davlat universitetining "AIF 2/17 O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonini tashkil etishda yangi texnologiyalar" mavzusidagi grant loyahasini bajarishda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 20-iyuldagi 03/2130-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur takliflar oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining ilmiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qilgan;

malaka oshirish institutlari va oliy ta'lim muassasalari hamkorligida loyihaviy yondashuv asosida kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy-metodik tayyorgarligini boshqarish texnologiyasini takomillashtirish, ilmiy-metodik tayyorgarligini rivojlanganlik darajalarini baholash vositalari masofaviy ta'limning raqamli ta'lim muhiti ishtirokchilarining ilmiy-metodik faoliyatini kompleks baholash mezonlarini takomillashtirishga doir takliflar "Oila pedagogikasi" va "Chiziqli algebra" nomli o'quv qo'llanmalar mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 10-sentyabrdagi 4/17-4/4-14534-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur takliflar kafedra professor o'qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlanishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy mazmuni, mohiyati va olingan natijalar 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan,

3 ta xalqaro va 3 ta Respublika miqiyosidagi konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta Respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda 2 ta o'quv qo'llanma uchun mualliflik guvohnomalari olingan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 157 bet matnni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari keltirib o'tilgan, bundan tashqari ilg'or xorijiy tajribalar ham o'rganilgan.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha pedagogik, psixologik, falsafiy, ilmiy, ijtimoiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilindi. Oliy ta'lim muassasalarida professor o'qituvchilarning lavozim vazifalari o'rganildi, Davlat ta'lim standartlari tahlil qilinib mavjud muammolar aniqlandi va ularning yechimini topish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Professor-o'qituvchilarning ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga qaramay, OTMda ilmiy-innovatsion faoliyatni takomillashtirish dolzarb muammo ekanligi asoslandi. Innovatsiya, innovatsion faoliyat, ilmiy innovatsion faoliyat tushunchalari tahlillariga asoslanib mualliflik ta'riflari keltirildi. Keltirib o'tilgan tahlillar va ta'riflar dissertatsiyamizning nazariy asosini tashkil etdi.

**Ilm** "arabcha" so'zdan olingan bo'lib, o'qish, o'rganish hamda hayotiy tajriba asosida orttirilgan bilim va malakalar majmui sifatida qaraladi. **Faoliyat** bu kishilarning tashqi olamga faol munosabati shakli, insonning o'zini o'zi maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirish usuli, inson borlig'ining muhim xususiyatlaridan biri. Faqat faoliyat zamiridagina inson mohiyati namoyon bo'lishi, jamiyatning, har qanday ijtimoiy tuzilmaning mavjudligi ta'minlanishi

mumkin. **Ilmiy faoliyat** bu “obyektlar, hodisa (jarayonlar)ning xususiyatlari, o‘ziga xosliklari va qonuniyatlarini aniqlash maqsadida borliqni o‘rganish va olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan. U fundamental (*nazariy va tajribaga yo‘naltirilgan*) va amaliy tadqiqotlardan iboratdir.

**Innovatsion** (inglizcha “Innovate” — **yangiliklar**, o‘zgarishlarni amalga oshirish) yangiliklarni, o‘zgarishlarni: texnologiyalarni, ilmiy-texnik va konstruktorlik loyihalarini va shu kabilarni joriy etish bilan bog‘liq (I.Shumpeter). Innovatsiya (yangilik joriy etish) — pedagogik ilmiy-texnik muvaffaqiyatlarni (*natijalarni, yutuqlarni*) yaratish, o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etish jarayonidir.

**Innovatsion faoliyat** — to‘plangan bilim, texnologiya hamda jihozlarni tijoratlashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijoriy tadbirlar majmuasidir (A.D.Goxshtand).

**Innovatsion kasbiy faoliyat** — mahsulotning tovar ko‘rinishiga keltirilgan, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa samaraga ega bo‘lgan hamda uning natijasida raqobatbardosh yangi texnika-texnologiyalarni loyihalashtirish va yaratishdir.

Innovatsion kasbiy faoliyatga berilgan ta‘riflarning tahliliga asoslanib, tadqiqotimiz davomi uchun quyidagi ta‘rifni keltiramiz: *innovatsion kasbiy faoliyati — mahsulotning tovar ko‘rinishiga keltirilgan, intellektual mulk sifatida rasmiylashtirilgan, texnik hujjatlari yoki ishlab chiqarish namunalari mavjud bo‘lgan, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa ko‘rinishda samara beradigan va pirovard natijada raqobatbardosh bo‘lgan yangi texnika-texnologiyalarni loyihalashtirish, yaratish jarayonidir.*

Ilmiy-innovatsion faoliyatning asosiy mahsulotlari (innovatsion mahsulotlar) quyidagilardan iborat bo‘ladi: intellektual mulkni muhofaza etuvchi hujjat (patent, savdo markasi va boshqalar), mahsulotning texnik hujjatlari, mahsulotni tayyorlash jarayonining texnik hujjatlari, yangi mahsulot, yangi texnologiya, ya‘ni ilmiy-innovatsion faoliyati natijasida yaratilgan va bozorga taqdim etilishi mumkin bo‘lgan barcha narsa, mahsulot va natijalar.

“Loyihaviy yondashuv” barcha ishtirokchilar mustaqil maqsadli izlanish, bilimlarni qayta ishlash va yangilashni amalga oshiradigan o‘quv jarayonini tashkil etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan yetakchi, ustun o‘quv strategiyasini amalga oshirishdir (V.I.Andreev).

Metodologiya (“methodus” va “logos”) — bu metodlar va faoliyat vositalari haqidagi ta‘limot. Keng ma‘noda metodologiya har qanday faoliyatning zaruriy komponentini tashkil qiladi.

Tadqiqotimiz nuqtai nazaridan *umummetodologik tamoyillarga* quyidagi tamoyillar kiradi: *tizimlilik tamoyili; sinergizm tamoyili; vazifalarni faollashtirish tamoyili; boshqaruv samardorligi tamoyili, tashkilot va boshqaruvning dualligi tamoyili. Xususiy metodologik tamoyillar* umummetodologik tamoyillarning mazmunan o‘ziga xos, turli ko‘lamli va turli darajadagi modifikatsiyalaridan biri hisoblanadi. Shu bois biz tomonimizdan

nazarimizda oliy ta'limning o'ziga xos xususiyatini ifodalovchi eng umumiy tamoyillar ajratildi: *integrativlik tamoyili; metodologik ahamiyatlilik tamoyili, ta'limning mobilligi (harakatchanligi) tamoyili; ta'limni fundamentalashtirish va ilmiy-innovatsion yo'naltirilganligining birligi tamoyili.*

Professor-o'qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirish jarayoni zamonaviy pedagogika fanida *loyihaviy-dasturiy, aksiologik, loyihaviy-maqsadli, darajali-texnologik* yondashuvlari nuqtai nazaridan hal qilinadi.

Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyatini boshqarishda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilgan: zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayonini loyihalash; innovatsion loyihaga yo'naltirilgan yondashuv asosida ilmiy-innovatsion faoliyatni amalga oshirish; loyihalarni boshqarish; ilmiy-innovatsion faoliyatda o'zini namoyon qilish.

Bizning fikrimizga ko'ra, ilmiy-innovatsion faoliyat — bu o'quv jarayoni to'g'risida yangi bilimlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan ilmiy va innovatsion pedagogik faoliyat sohasi bo'lib, uning natijasi professor-o'qituvchining ilmiy-innovatsion kompetensiyasining ijodiy darajasi, shu jumladan bilim, ko'nikma, kasbiy va shaxsiy fazilatlarini, shuningdek, o'qituvchining ilmiy-innovatsion malakasi, o'quv jarayoniga o'zlarining ilmiy-innovatsion mahsulotlarini ishlab chiqishi va joriy etishi.

Zamonaviy adabiyotlarda rivojlanish jarayonini funksiyalar bo'yicha aniqlash keng tarqaldi: axborotli-tahliliy, motivatsion-maqsadli, rejalashtirish-prognostik, tashkiliy-ijro etuvchi, nazorat-diagnostika, tartibga solish-tuzatish. Bu professor-o'qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyatini boshqarish imkoniyatlarini sezilarli darajada boyitadi va kengaytiradi.

Ilmiy-innovatsion faoliyat professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatining muhim komponentlaridan biri bo'lib, uning mazmuni va shakllari professor-o'qituvchilarning kasbiy ahamiyatli va shaxsiy fazilatlarini, shu jumladan quyida keltirilgan elementlar bilan bog'liq holda tobora ko'proq ko'rib chiqilmoqda: motivatsion komponent; faoliyat komponenti; kognitiv komponent; kommunikativ komponent; aksiologik komponent; refleksiv komponent.

Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirishga qaratilgan ilg'or xorijiy va tarixiy-pedagogik tajribalar tahlil qilindi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha mavjud muammolar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim muassasalarida kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida professor-o'qituvchilarda ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishning texnologik modeli, kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy-innovatsion

faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirish texnologiyasi keltirib o'tilgan. Pedagogik shart-sharoitlar majmuasi oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirish uchun biz ishlab chiqqan modelning samaradorligini oshirishga qaratildi.

Pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash jarayonida biz ilmiy-innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga, uning mazmuniga e'tibor qaratdik. Natijada biz ikkita shart guruhini aniqladik:

1. Modelning komponentlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan mazmunli-muvofiqlashtiruvchi shartlar: a) professor-o'qituvchilarni shaxsiy tajribani hisobga olgan holda tarmoq resurslarini tanlashga jalb qilish (resurs-tarmoq komponenti); b) jamoatchilik nazorati ostida loyiha yechimlarini ekspertizadan o'tkazish (loyihalash va boshqaruv komponenti); v) vaqtni boshqarish tamoyillari bo'yicha o'zaro hamkorlikni tashkil etish (tashkiliy va predmetli komponenti);

2. Professor-o'qituvchi shaxsiga ta'sir etuvchi subyektiv-mazmunli sharoitlari: a) kommunikativ tashabbus (boshqaruv)ni rivojlantirish; b) professor-o'qituvchining ilmiy salohiyatini faollashtirish (ilmiy-innovatsion faoliyati); v) tijoratlashtirish va biznes yo'nalishini shakllantirish (tarmoq o'zaro hamkorlik).

Ko'p funksiyali topshiriqlar tizimi bo'yicha ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar talabalarda tahlil, umumlashtirish, sintez, baholash singari funksiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimidir; imiy ishlar va innovatsiyalarni chuqurroq anglash hamda umumlashtirilgan intellektual harakatlarni yo'lga qo'yish ilmiy-innovatsion faoliyatni takomillashtirishga katta hissa qo'shishi lozim. Umumiy ma'noda pedagogik shart-sharoitlarni uchta katta guruhga bo'lish mumkin: *tashkiliy-pedagogik, metodik, ergonomik*.

Ergonomik shart-sharoitlarni ta'minlashda quyidagi ishlar amalga oshirildi: oliy ta'lim muassasalarida kafedra to'g'risidagi Nizom talablariga muhit, raqamli-ta'lim muhiti, tarmoqli muhit, masofaviy raqamli ta'lim muhiti, raqamlashtirilgan masofaviy malaka oshirish kabi tushunchalar mazmuni mualliflik talqini nuqtai nazaridan kiritildi va amaliyotga joriy qilindi; oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari ilmiy-innovatsion tayyorgarligini takomillashtirishning innovatsion tashkiliy-didaktik shakllarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari va sifat ko'rsatgichlari, raqamli texnologiyalar vositasi yordamida uslubiy-didaktik ta'minoti ("Oila pedagogikasi", "Chiziqli algebra") ishlab chiqildi, "Matematikani o'qitish metodikasi" kafedrasining <https://www.shdpimatematika.wordpress.com/> nomli sayti ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilindi; oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarida ilmiy-innovatsion tayyorgarligini takomillashtirishning texnologik modeli asosida pedagogni mustaqil ta'lim olishga undovchi psixologik-pedagogik va axborot-texnologik tayyorgarligini shakllantirish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi takomillashtirildi va amaliyotga joriy qilindi. Taqdim etilgan mazmunli-muvofiqlashtirish va subyektiv-mazmunli pedagogik shart-sharoitlar

majmuasi professor-o'qituvchilar ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirish modelining ishlashiga, model komponentlarining ishlash samaradorligini kuchaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kafedra professor-o'qituvchilarining kommunikativ tashabbusini mafkuraviy, motivatsion, xulq-atvor, hissiy-subyektiv komponentlarini rivojlantirish orqali ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirishning mazmunli-muvofiqlashtiruvchi va subyektiv-mazmuniy pedagogik shart-sharoitlari ta'minlandi.


Model – bu tadqiqot jarayonida asl obyekt o'rnini bosadigan moddiy yoki virtual obyekt, shuning uchun uni bevosita o'rganish asl obyekt haqida yangi bilim beradi. Modellar uch turga bo'linadi: fizik modellar (asl o'xshash bir tabiatga ega); haqiqiy matematik modellar (ularning tabiati prototipdan farq qiladi, ammo asl nusxaning xatti-harakatlarini matematik tavsiflash mumkin); mantiqiy-semiotik modellar (maxsus belgilar, tuzilmalar). Pedagogik modellar asosan sanab o'tilgan turlarning ikkinchi va uchinchi guruhlariga kiritilgan.

Metodologik yondashuvlar asosida kafedra professor-o'qituvchisining ilmiy-innovatsion faoliyatni boshqarishning mazmunli va funksional modelini ishlab chiqishda biz quyidagi qoidalarga asoslandik: kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini boshqarish loyihaga muvofiq texnologik modelini tuzish sharti bilan ta'minlanishi mumkin – *loyihaviy-dasturiy, aksiologik, loyihaviy-maqсадli, darajali-texnologik*, shu jumladan uning tarkibidagi quyidagi komponentlar: *maqсадli, metodologik, mazmunli, tashkiliy-jarayonli, baholovchi va natijaviy komponentlar (1-rasmga qarang)*.

Texnologik modelning metodologik asosini loyihaviy-maqсадli yondashuvning quyidagi tamoyillari tashkil etadi: *loyihaviylik, ochiqlik, ijodkorlik tamoyili*.

Model komponentlarning to'liqligi va o'zaro bog'liqligi bo'yicha o'rganilayotgan jarayonni ajralmas holda aks ettiradi: maqсадli (kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirish uchun), metodologik (kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyati jarayonida yondashuvlar, tamoyillardan foydalanish, (shuningdek uning xususiyatlari), mazmunli (lavozim vazifalari bo'yicha mazmuni takomillashtirish, uslubiy qo'llab-quvvatlash), texnologik-jarayonli (elektron va masofaviy ta'lim texnologiyalari, o'qitish usullari va vositalari, shakllanish bosqichlarini belgilab berish), baholovchi-natijaviy (pedagogik tajribasinov mezonlari va darajalarini aniqlash). Modelning integrativligi uning barcha komponentlarining o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirida, kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirish maqsadlari, mazmuni, tashkiliy shakllari va usullarini birlashtirishda namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida rivojlantirishning fizik, matematik va mantiqiy-semiotik modellariga xos texnologik modeli maqsaddan natijaga yo'naltirilgan bashoratlash imkonini beruvchi hamda algoritmik ketma-ketlikni ta'minlovchi komponentlar uzviyligida ishlab chiqildi.



**1-rasm. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning texnologik modeli**

Buxoro va Termiz davlat universitetlari hamda Shahrizabz pedagogika institutlarida professor-o‘qituvchilarning kafedrada ilmiy-innovatsion faoliyatini

loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirish biz tomonimizdan uch bosqichda amalga oshirildi: *propedevtik; faoliyatli; yakuniy-tuzatish*.

*Propedevtik bosqichda* maqsad, vazifalar, axborot to'plash usullari, professor-o'qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyatini baholash mezonlari, jamoa bilan ishlash shakllari, pedagogik monitoring vositalari belgilandi va belgilangan mezonlarga asosan birlamchi kesim amalga oshirildi.

*Faoliyat bosqichida* professor-o'qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishning texnologik modeli mazmuni loyihaviy-maqsadli yondashuv asosida amalga oshirildi, professor-o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va kasbiy ahamiyatli sifatlari monitoring qilindi.

*Texnologiyaning yakuniy tuzatish bosqichida* asosiy maqsad texnologik modelning komponentlarini tahlil qilish va tuzatish edi, biz olingan monitoring ma'lumotlarini tahlil qildik, so'ngra prognoz qildik, olingan bilimlarni, professor-o'qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyatdagi ko'nikmalarini mustahkamladik.

Professor-o'qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida takomillashtirishga quyidagi ish shakllari yordam berdi: *amaliyotga yo'naltirilgan seminarlar, shaxsiy o'sish bo'yicha treninglar, mahorat darslari, individual maslahatlar*.

Keys texnologiyasi (aniq vaziyatlar) – real iqtisodiy, ijtimoiy vaziyatlar tavsifidan foydalanadigan o'qitish texnologiyasi. Keys texnologiyasi o'yindan tashqari taqlid qiluvchi faol o'rganish usullarini anglatadi. Keys texnologiyasining bevosita maqsadi – professor-o'qituvchilar guruhining birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan muayyan vaziyatda yuzaga keladigan vaziyatni tahlil qilish va amaliy yechim ishlab chiqish; jarayonning yakuni – taklif qilingan algoritmlarni baholash va qo'yilgan muammo kontekstida eng yaxshisini tanlash.


Ilmiy-innovatsion tavsifdagi faoliyat ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lib, tartibga solinadigan, qat'iy me'yorlarning yo'qligi professor-o'qituvchiga yetakchi faoliyat turini mustaqil ravishda belgilashga, uni qiziqarli, hayajonli va samarali qilishga imkon beradi. Shunday qilib, taklif etilayotgan tadbirlar, bir tomondan, jalb qilinganlarga ta'sir qilsa, ikkinchi tomondan, subyektlarning ijodkorligi natijasidir. "OTMning o'quv jarayonida axborot texnologiyalari", "Professor-o'qituvchilar malakasini oshirish o'qitish sifatining sharti sifatida", "Zamonaviy ta'lim va ishlab chiqarish ehtiyojlariga yo'naltirilgan kadrlar tayyorlashning ko'p tarmoqli tizimini takomillashtirish shart-sharoitlari majmuining holati va baholashi" nomli pedagogik konferensiyalari, OTMda fan kunlari, "Talabalar ta'lim saviyasining mavzuli ilmiy-innovatsion yondashuvlari" mavzusida o'tkazildi.

Quyida biz oliy ta'lim muassasasi stajyor o'qituvchilarini ilmiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishning loyihasini va mazmunli tuzilmasini ishlab chiqdik.

Bu tuzilmalar (2- va 3-rasmlarga qarang) o'zaro bog'liq ravishda amalga oshiriladi va jarayonning mantiqiy izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Loyihada nazarda tutilgan maqsadlar va metodikalar stajyor-o'qituvchilarni


ilmiy-innovatsion faoliyatga samarali jalb qilish imkonini beradi, bu esa oliy ta'limning sifat ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.



**2-rasm. Kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy-metodik tayyorgarligini boshqarishning mazmunli-texnologik modeli**

OTM Kengashi, rektor, o'quv ishlari bo'yicha prorektor, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor va kafedra mudiridan iborat, sirkulyatsion boshqaruv davomida kafedra professor o'qituvchilari va stajyor-o'qituvchilar hamkorligi amalga oshirildi: stajyor o'qituvchilarga ilmiy rahbar tayinlash, ustoz-shogird rejasini tasdiqlatish, ilmiy ish asosnomasini shakllantirish, ilmiy ish mavzusini OAK byullitenida e'lon qilish; Bunda tadqiqotchilik metodidan foydalanildi; Rivojlangan ilmiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarlik komponenti: *motivatsion-kognitiv*; stajyor-o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish, me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazmunini tanishtirish, o'quv qo'llanma va darsliklar yozishda ko'maklashish; Bunda evristik ta'lim texnologiyasi metodidan foydalanildi; Rivojlangan ilmiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarlik komponenti: *kognitiv-kommunikativ*; stajyor-o'qituvchilarni ilmiy va amaliy loyihalarga jalb etish, ilmiy jurnallarga maqolalar chop etishga ko'maklashish, ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik

